

MASOFAVIY VA AN'ANAVIY TA'LIM : O'RGANISH SAMARADORLIGI

Shukurova Nodira Bakhtiyorovna

O'zDJTU, Ingliz tili amaliy fanlar №3 kafedrasi o'qituvchisi

Abdurayimova Adiba Qahramon qizi

O'zDJTU, Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili 3-fakultet talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada masofaviy va an'anaviy ta'limga o'qish hamda o'rghanish qanchalar samaradorligi bo'yicha fikrlar yoritilgan. Mayjud bo'lgan bu ta'limga tizimlari orqali talabalar o'zlariga qulay o'qish hamda o'rghanish usulini tanlashlari mumkin. Ushbu maqola qaysi ta'limga tizimi yaxshiroq ekanligi haqida emas, balki talabalarning qaysi usulda o'z-o'zini rivojlantirishi va yaxshiroq ta'limga olishi muhimligi to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *masofaviy ta'limga, an'anaviy ta'limga, onlayn kurslar, raqamli platforma, virtual sinf, videodars, internet aloqasi, gamifikatsiya, auditoriya darsi, amaliy mashg'ulot, ilmiy rahbar.*

Annotation: *This article discusses the effectiveness of online and offline education. Through these educational systems available students can choose their own convenient way of studying and learning. This article is written not about which educational system is better, but about the importance of how students develop themselves and get a better education.*

Key words: *distance learning, traditional learning, online courses, digital platform, virtual classroom, video lecture, course module, internet connectivity, adaptive learning, academic advisor, practical training.*

Masofaviy ta'limga (MT) va an'anaviy ta'limga (AT) – bu o'qituvchi hamda o'quvchining bir-biri bilan masofa, turli xil zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan yoki yuzmayuz uchrashib o'rghanish tarzdagi ta'limga turi. Bu ikki ta'limga bugungi ta'limga tizimining asosiy ikki yo'nalishi. Ikkala usul ham o'ziga xos xususiyatiga ega va talaba, o'quvchilar uchun turli muhim imkoniyatlar taqdim etadi.

Avvalambor, masofaviy ta'limga haqida so'z yuritsak, zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalar dunyoning istalgan nuqtasidan turib, sifatli ta'limga olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu ta'limga shakli ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, ba'zi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Masofaviy ta'limga afzalliklari:

- *Moslashuvchanlik:* Masofaviy ta'limga talabalar darslarni o'zlarini uchun qulay bo'lgan vaqtida o'qishlari mumkin. An'anaviy ta'limga qat'iy jadval bo'lsa, masofaviy

ta;lurma vaqtini o‘quvchining o‘zi belgilaydi. Bu imkoniyat ishlaydigan yoki boshqa mas’uliyatlarga ega bo‘lgan talabalar uchun juda qulay.

- *Geografik chegaraning yo‘qligi*: talaba dunyoning istalgan burchagidan turib ta’lim olishi mumkin. Masalan, chekka hududlarda yashovchi talaba xorijiy universitetlarning onlayn kurslarida qatnashishi mumkin.
- *Xarajatlarning kamayishi*: Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limdan ko‘ra arzonroq. Yo‘l, turar joy va boshqa xarajatlar yo‘q bo‘lganligi sababli bu talaba uchun moliyaviy jihatdan foydali.
- *Texnologik ko‘nikmalarini oshirish*: Onlayn o‘qish jarayonida talabalar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganadilar. Bu kelajakda ishga joylashish uchun muhim bo‘lgan ko‘nikmadir.

Masofaviy ta’limning qiyinchiliklari:

- *Yuzma –yuz muloqotning kamayishi*: An’anaviy ta’limda talabalar va o‘qituvchilar orasida bevosita muloqot mavjud bo‘lsa, masofaviy ta’limda bu imkoniyat cheklangan. Bu ba’zi talabalar uchun darsarni tushunishni qiyinlashtirishi mumkin.
- *Texnologik qiyinchiliklar*: Internet yoki kompyuter bilan bog‘liq muammolar ta’lim jarayonida salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Har doim ham barcha talabalar yuqori tezlikdagi internetga ega emas.
- *Motivatsiya yetishmasligi*: Masofaviy ta’limda talabalar o‘zlarini mustaqil nazorat qilishlari kerak. Agar motiatsiya past bo‘sa, darslarni to‘liq bajarish qiyinlashadi.

An’anaviy ta’limning ham masofaviy ta’lim kabi afzalliklari hamda qiyinchiliklari mavjud. Endi bu ta’lim tizimning xususiyatlariiga nazar solamiz.

Yuzma-yuz muloqot (Face-to-face): An’anaviy ta’limning eng katta afzallilari bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotdir.

Ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish (Development of social skills): Oflayn ta’lim ijtimoiy ko‘nikmalarini, jumladan, jamoaviy ish, muhokama va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Inglizcha manba: Harvard Business Review ta’kidlashicha, an’anaviy ta’limda ishtirok etgan talabalar ish joyida muvofiqlik va muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish ehtimoli 25%dan yuqoriroqdir.

Tuzilgan va qat’iy ta’lim muhiti (Structed learning environment); Oflayn ta’limda qat’iy jadval va qoidalarga amal qiladi, bu esa talabalar uchun tartib-intizomni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, Oliy ta’limda an’anaviy formatning afzalliklari mavjud, ya’ni O‘zbekistondagi Oliy ta’lim muassasalari an’anaviy ta’limga qaytish imkoniyatlarini o‘rgatmoqda. Talabalar va ularning ota-onalari so‘rovlariga ko‘ra, an’anaviy ta’lim tizimi talabalarning chuqurroq bilim olishlariga, amaliy mashg‘ulotlarga ishtirok etishlariga va o‘quvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilishlariga imkon yaratadi. Onlayn ta’lim esa bu jihatlarni to‘liq ta’minlay olmaydi. An’anaviy ta’lim va insonlararo munosabatlar:

Pandemiya davrida onlayn ta'limning ahamiyati ortgan bo'lsa-da, kichik yoshdag'i o'quvchilar uchun yuzma-yuz muloqot va sinfdoshlar bilan jismoniy aloqaning ahamiyati juda katta. Ayniqsa boshlang'ich sinflar uchun jonli muloqot o'qitish jarayonining ajralmas qismidir, chunki bu bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Barchamizga ma'lumki, dunyo miqyosida masofaviy ta'lim o'sib bormoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil COVID-19 pandemiyasi davrida dunyodagi talabalarning 1,6 milliarddan ortig'i onlayn ta'limga o'tishga majbur bo'ldi. Asos : Bu raqamlar masofaviy ta'limning butun dunyoda qanday ahamiyat kasb etganini va keljakda ham ushbu format muhimligini ko'rsatadi.

Masofaviy ta'lim (MT) – bu zamonaviy va qulay ta'lim shakli bo'lib, ko'plab afzalliklarga ega. Biroq, u talabadan mustaqillik, mas'uliyat va texnologik ko'nikmalarini takab etadi. Keljakda ta'limning bu shakli yanada rivojlanishi va ko'proq imkoniyatlar yaratishi xususiyati kutilmoqda. An'anaviy ta'lim (AT) – bu ta'lim tizimi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi. O'quvchidan ham o'qituvchidan ham qat'iy mas'uliyat talab etadi. Bu ikki ta'lim tizimiga quyidagi takliflar bersak bo'ladi.

An'anaviy ta'lim uchun takliflar:

- Interaktiv darslar: Talabalar faol ishtirok etishi uchun darslarni interaktiv qilib tashkil etish.
- Tajriba almashish: O'qituvchilar va talabalar o'rtasida tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, seminarlar va konferentsiyalar tashkil etish.
- O'zaro baholash: Talabalar o'zaro baholash va fikr bildirish orqali o'z bilimlarini oshirish imkonini berish.

Masofaviy ta'lim uchun ham ba'zi bir takliflar beradigan bo'lsak,

- Muntazam onlayn muloqot: O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotni uzluksiz o'rnatish uchun virtual uchrashuvlar, videokonferentsiyalar o'tkazish.
- O'z-o'zini boshqarish: Talabalarga o'z-o'zini boshqarish va motivatsiyani rivojlantirish uchun maqsadlar qo'yish va baholash tizimlarini joriy etish.

Bu takliflar ta'lim sifatini yaxshilashga va talabalar uchun samarali o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Daryo" internet nashri, 2015. @daryo.uz
2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldasheva, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>

3. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
4. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
5. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
6. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
7. J. F. Sharopova “Ta’lim texnologiyalari”, ”Navro‘z”, Toshkent, 2019.
8. Jamolov Rahmonali Dilakfor o`g`li, Yuldasheva Nargiza Abdukholiq qizi (2024). The role and main characteristics of eco tourism in the field of tourism of the republic of uzbekistan. zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2(9), 9–13. Retrieved from <http://zamtadqiqot.uz/index.php/zt/article/view/496>
9. N. Duseinov, B. Ahemedov, ”Masofaviy ta’lim tizimi” ilmiy maqola, researchgate.net , 2021.
10. Nuriddinova Gulسانам Нажмиддин qizi, Yuldasheva Nargiza Abdukholiq qizi Teacher, (2024). Cultural tourism development and its influence on local people. zamonaviy ta’limda fan va innovatsion tadqiqotlar, 2(9), 4–8. Retrieved from <http://zamtadqiqot.uz/index.php/zt/article/view/495>
11. Rushana To‘xtasheva, Samarqand
12. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
13. Yuldashova , N. A. qizi, & Ziyadulloyeva , M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners’ communicative competence. *Golden Brain*, 2(1), 572–575. Retrieved from<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>